



INTERNETNING JAMIYAT TARAQQIYOTI VA MA'NAVİYATIGA TA'SIRI .

Ruziyev B. U

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi .

Annotatsiya: *Ushbu maqolada internet ttarmog'inining rivojlanib borishi jamiyatga iqtisodiy, ilmiy-texnik madaniy va boshqa sohalarda ijobiliy ta'sir etishi bilan birga, jamiyatni tanazzulga olib borishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirga ega ekanligi va bundan saqlanish va himoyalanish uchun jamiyatning ma'naviyatini, milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va uni keng jamiyat orasida targ'ib qilish muhimligi haqida fikr yuritigan.*

Kalit so'zlar : *internet, jamiyat ma'naviyati, milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlari, Yevropa, Buyuk Britaniya, Rossiya, Rossiyada an'anaviy qadriyatlari ro'yxati.*

Biz yashayotgan davr kuchli axborotlashgan davrga aylandi. Bugun yer yuzining aholi yashayotgan har bir nuqtasini internetsiz tasavvur qilish qiyin. Internet tarmog'i shunchalik keng va tez suratlarda rivojlanib bormoqdaki u jamiyatga uzining iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy va qo'yingki barcha sohalarda kuchli ta'sirlarini o'tkazib kelmoqda.

Katta tezlikda va yetarlicha darjada axborotlar almashinuvini ta'minlab bergan internet har bir davlat va jamiyat taraqqiyotining sezilarli darajada o'sishiga ham zamin hozirlab bermoqda.

Yangi kasblar, yangi ish o'rnlari, texnik, iqtisodiy va harbiy sohalarda taraqqiyot keskin oshib bormoqda. Masalan, xalqaro maydonda qaysidir ma'noda hukmronlikda kuchlar muvozanati butunlay boshqacha holga keldi. Bir vaqtlar mavjud bo'lgan ko'p sonli armiyalar endi asosan ixcham ammo, yuqori darajada aniqlikka asoslangan texnik boshqaruvlarni talab qilmoqda. Internet va u bilan bogliq texnik tizimalrni rivojlantirish natijasida aksariyat davlatlar o'z iqtisodiy yoki harbiy salohiyatni oshirib bormoqda. Ammo harbiy salohiyat qanchalik kuchli bo'lmasin, bunday mamalakatlarda xalqning, jamiyatning ma'naviyati qanday ahvoldaligi umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat orasidagi o'rni masalasi muhim o'rinda turadi. Masalan, xozirgi aksariyat Yevropa davlalarida iqtisodiyot ancha ilgarilab ketgani bilan, jamiyat orasida demokratik qadriyatlар sifatida axloqsizlik, qadriyatlarga zid bo'lgan "erkinlik" niqobi ostidagi zararli urf -odatlar rivojlanib ketmoqda. Shu tariqa, internet tarmog'iga ularish va uning jamiyat orasida keng tarqalishi jamiyat ma'naviyatiga, qadriyatlarga ham ma'lum ta'sirlarni o'tkazib kelmoqda. Natijada bu dunyo hamjamiyatida o'zaro integratsiyalshuvni keltirib chiqarmoqda. Ko'pgina sohada bo'lgani kabi ma'naviy sohada ham qadriyatlар alamshinuvi o'zaro integratsiyasi va yurtimizda azaldan saqlanib ajdodlardan-avloddarga o'tib kelayotgan qadriyatlarning o'zgarishi va ba'zilarining hatto yo'qolib ketish xavfi ham paydo bo'lmoqda .

Albatta har bir xalqning o'ziga xos tarixi, qadriyatlari bor. Yurtimiz ham uzoq tarixga ega. Bu esa kata ma'naviy meros hisoblanadi. Ma'naviy meros bo'lib ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelayotgan qadimiylardir kitoblar, o'ziga xos tarixga ega bo'lgan bino, inshootlar, yoki buyumlar bilan birga urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlar uning tarkibiy qismalari hisoblanib, ular jamiyatning axloqini, xalqimizning o'zligini ifoda etib turadi. Shunday ekan shiddat bilan rivojlanib borayotgan internet va ijtimoiy tarmoqlar esa jamiyatning taraqqiyoti bilan birga uning ma'naviyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bu o'rinda buyuk alloma Forobiy: "insonning xavfsiz yashashi uchun birgina farovonlikning o'zi yetishmaydi. Inson jasorati esa tashqi urushdagi jasorat emas, balki odamlarning o'z illatlari ustidan g'olib kelib, tinchlikni ta'minlashlaridir."¹⁵ deb aytganida katta hikmat bor edi.

So'z O'zbekistonda jamiyat ma'naviyatini internetning salbiy ta'sirlaridan saqlash haqida borar ekan, bu o'rinda O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlari muhim e'tiborga ega: "Shuni unutmaslik kerakki, - deydi I.Karimov, bu masalaga alohida e'tibor qaratib, - bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinxaymaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin"¹⁶ deb ta'kidlagan edi.

Virtual maydondagi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlar umuminsoniy jihatlarining baynalminallahib, universallahib borishi kuzatilayotgan bo'lsa, shu bilan birga milliylik va umuminsoniylik tamoyillariining integrasiyalashuv jarayoni ham kechmoqda.

Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. «Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu goya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud. Bu hol esa jamiyatimizda zararli mafkuraviy tahdidlarga befarq bo'lmasligimizni talab qilmoqda. Negaki, bugun dunyoning boshqa tomonlaridagi ma'naviy tanazzul, bir zumda bizning jamiyatimizga ham kirib kelishi mumkin. Bu hol qanchalik jiddiy ekanligini rivojlangan davlatlar misollarida ko'rib turibmiz.

Bugun ko'pgina Yevropaning rivojlangan davlatlarida jamiyat orasidagi chuqur ma'naviy tanazzul, qadriyatlar almashinushi, aniqrog'i, uning yo'qolib borishi kuzatilmoqda. Aslida jamiyatni ma'lum mafkuraga solib qo'yish, erkinlikka zid ekaligi va demokratiya tamoyillariga to'g'ri kelmasligi, erkinlikning haddan tashqari bo'lishini,

¹⁵ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar sha'ri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 18–bet.

¹⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.115



CANADA



CANADA

aniqrog'ini aytadigan bo'lsak insoniyatning mutlaqo axloqiy tartib va qonunlarga amal qilmay qo'yishini keltirib chiqardi. Natijada Yevropa, va Amerika yoki boshqalar o'zlaricha "rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo qilmoqdamiz "deb dunyoga bong urayotgan mamalaktlarning jamiyatlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar yo'qolib bormoqda. Natijada aksariyat buni payaqagan davlatlar hukumatlari qadriyatlarni saaqlab qolish uchun maxsus institut va tashkilotlar tuzib, qadriyatlarning royxatlarini shakllantrib qo'yishga uni qonunan belgilab olishga xarakat qilmoqda ! Aslida qadriyatlarning barchasi ham qonunan belgilab qo'yilishi kam kuzatilgan holat edi. Chunki qadriyatlar ajdodlardan avlodlarga o'tib kelyotgan axloqiy fazilatlar hisoblanib, ular jamiyatning ma'naviyatini xalqning o'zligini ko'rsatib turishi ko'pchilikka ma'lum. Ammo virtual borliq ta'siriga tushib qolish xavfi bugun shuni taqozo qilmoqda. Bunga AQSh, Daniya, Buyuk Britaniya va Rossiya mamlakatlarini misol qilib keltrish mumkin ¹⁷. Masalan, Rossiyada prezident V.Putin farmoni bilan tasdiqlangan an'naviy qadriyatlar ro'yxatida hayot, qadr-qimmat, inson huquq va erkinliklari, vatanparvarlik, fuqarolik, Vatanga xizmat qilish va uning taqdiri uchun mas'uliyat, yuksak ma'naviy g'oyalar, mustahkam oila, bunyodkorlik, ma'naviyatning moddiy narsadan ustunligi, insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, birdamlik, o'zaro yordam va o'zaro hurmat, tarixiy xotira va avlodlar davomiyligi va Rossiya xalqlarining birligi ¹⁸ kabilalar Rossiya jamiyatining an'anaviy qadriyatlari sifatida qonunan tasdiqlab qoyilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, internet tarmog'ining rivojlanishi mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida katta ilmiy-texnik, iqtisodiy-madaniy va boshqa sohalar rivojlanib bormoqda. Biroq jamiyat taraqqiyotida, uning burdamligyu-axloqi, chin insoniy fazilatlar va qadriyatlarning saqlanib qoishida va umuman uning ma'naviyatiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lmoqda. Shu jihatdan yurtimizda jamiyatimizning yuksak ma'naviyati bo'lmish milliy va ma'naviy va diniy qadriyatlаримизни saqlash, uni chuqr o'rganish va keng jamoatchilika targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etib qoladi.

¹⁷ https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/Milliy_qadriyatlar_haqida

¹⁸ www.publication.pravo.gov.ru/ Указ Президента Российской Федерации от 09.11.2022 № 809 "Об утверждении Основ государственной политики по сохранению и укреплению традиционных российских духовно-нравственных ценностей"